

## “AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DIVIDEND SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH”

**Akromov Shoxrux**

**Annotatsiya.** Maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatini samarali tashkil etish va takomillashtirishning nazariy-huquqiy asoslari, amaliyotdagi faoliyati va xorij davlatlari tajribasini o'rganish asosida uni rejalashtirishga joriy qilishing o'ziga xos jihatlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** dividend, aksiyadorlik jamiyati, aksiya, foyda, zarar.

**Abstract.** In the article is discussed the theoretical and legal basis for the effective organization and improvement of dividend policy in joint stock companies, the current situation and the specifics of its implementation in the country based on the study of foreign experience.

**Keywords:** dividend, joint stock company, investment attractiveness, stock, shareholder.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini samarali tashkil etish orqali foydani maksimallashtirish ijroiya organ va korporativ boshqaruv subyektlarining asosiy maqsadi bo'lib hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligining asosiy ko'rsatkichlari bo'lib, foyda miqdori hamda uning dividend sifatida taqsimlanish darajasi hisoblanadi. Bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy resurslar, ya'ni investitsiyalar jalb qilishda mazkur ko'rsatkichlarning holati qay darajada ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: “Investitsiya bilan turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi”.<sup>8</sup>

Prezidentimiz ta'kidlagan jihatlardan ham ko'rishimiz mumkinki, investisiyalar aksiyadorlik jamiyatlari uchun yangi texnika, texnologiyalar va “nou-hau” lar kirib kelishiga imkoniyatlar yaratadi.

Bugungi kunda mamalakatimizdagi barcha korxonalarda ham dividend siyosati yaxshi holatda amalga oshirilayapti, deb bo'lmaydi. Chunki dividend siyosatining samarali amalga oshirilishi o'z navbatida fond birjalar rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatishi kerak. Shu sababdan ham bugungi kunda mamlakatimiz aksiyadorlik jamiyatlarida foydani taqsimlash mexanizmi va dividend siyosatidagi mavjud kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi.

A.Aydin, S.Kaydarlarning ta'kidlashicha, dividend siyosati har doim molianing ko'p muhokamaga sabab bo'ladigan va tadqiq qilinadigan yo'nalishlardan bo'lib

---

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi va Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabr Oliy Majlisiga Murojatnomasi. - <https://president.uz/oz/lists/view/2228>

kelgan va dividend to'lovlari bo'yicha qaror qabul qilish korporativ moliyaning muhim qismi hisoblanadi. Korporativ boshqaruv va dividend siyosati o'tasidagi bog'liqlik bugungi kunda korporativ moliyaning o'rganilayotgan muhim tadqiqot mavzusi bo'lib kelmoqda.<sup>9</sup>

G.Surveys va J. Tufanovlarning fikriga kora, kompaniyalar dividend to'lovlari uchun yetarli pul mablag'lari ega bo'lmalar ular tomonidan amalga oshiriladigan birlamchi chora sifatida kelajakdagi investitsiya loyihalarni qisqartirish bilan bir qatorda dividendlarni ham qisqartirish bilan bir qatorda dividendlarni ham qisqartirish amalga oshiriladi.<sup>10</sup>

Mamlakatimizda ham keying yillarda dividend siyosatini samarali etish va takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, professor S.Elmirzayevning fikriga ko'ra, dividend siyosati – korxonaning bozor qiymatini va mulkdorlar turmush farovonligini oshirish maqsadida foydaning iste'mol qilinadigan qismlari o'tasidagi proporsiyani optimallashtirishga yo'naltirilgan korxona moliyaviy siyosatining bir qismidir.

Dividend – bu sotilgan aksiyalar paylar soniga nisbatan mulkdorlar o'tasida aniq bir davr bo'yicha taqsim, korxona foydasining bir qismidir. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligaga olingan foya va aksiyadorlarga to'lanayotgan dividend miqdori bilan belgilanishidan kelib chiqqan holda dividend siyosatining tashkiliy xususiyatlari va takomillashtirish masalalari xususida to'xtalib o'tamiz.

Aksiyadorlik jamiyatlari yaratishni samararali tashkil etish mamlakat moliya tizimi barqarorligini ta'minlashda alohida ahamiyatkasb etadi. Chunki aksiyadorlik jamiyatlari moliyasi davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi va Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabr Oliy Majlisga Murojatnomasi. - <https://president.uz/oz/lists/view/2228>
2. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.
3. Elmirzayeva S. Korporativ Moliya. Darslik/-T: "Iqtisod-moliya", 2019. 364b.

<sup>9</sup> 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.

<sup>10</sup> Elmirzayeva S. Korporativ Moliya. Darslik/-T: "Iqtisod-moliya", 2019. 364b.